

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

2018 -YIL QURILISH PUDRAT ISHLARI YANVAR-OKTYABR OYLARIDA

Joriy yilning yanvar – oktyabr oyida viloyat bo'yicha 2 637,3 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 460,3 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 17,5 % foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,5 % ni tashkil qildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 50,6 %i yoki 1 333,4 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 32,0 % ni yoki 843,6 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi. Shu jumladan, Chiroqchi tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 187,8 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 107,1 foizni, Shahrisabz shahrida – 90,9 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 103,8 foizni, G'uzor tumanida -132,1 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 103,5 foizni, mos ravishda, Qamashi tumanida – 57,0 mlrd.so'mni yoki 102,5 foizni tashkil etdi.


Raqamlar:

Qurilish-montaj ishlari hajmi – 2 637,3 mlrd.so'm

Yirik qurilish-pudrat tashkilotlari ulushi – 17,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi – 50,6 %

Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 31,9 %




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,1 %ni tashkil etdi.

	JAMI (mlrd.so'm)	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha			Jami qurilish xajmidan
		Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirish
Viloyat bo'yicha jami:	2637,3	2086,0	191,9	359,4	1908,4
Nodavlat :	2569,4	2086,0	149,2	334,2	1876,9
Davlat:	67,9	-	42,7	25,2	31,5

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish ishlari hajmida 7,3 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,6 %ni tashkil qildi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar-oktyabr uchun



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi**

		<i>shu jumladan:</i>
--	--	----------------------

	<i>Jami</i>		<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Qashqadaryo viloyati	2637,3	101,3	161,1	65,3
tumanlar:				
G'uzor t	132,1	103,5		
Dehqonobod t	85,1	99,8		
Qamashi t	57,0	102,5		
Qarshi t	240,0	102,1	3,4	213,4
Koson t	332,9	101,7	5,9	107,4
Kitob t	200,2	101,2		
Mirishkor t	79,2	99,6		
Muborak t	138,9	98,3	27,8	49,4
Nishon t	68,3	99,4	4,5	98,8
Kasbi t	112,4	104,0	3,4	208,7
Chiroqchi t	187,8	107,1		
Shahrisabz t	134,0	101,3		
Yakkabog' t	130,7	95,5	6,0	244,0
Qarshi sh	647,8	100,4	78,0	64,5
Shahrisabz sh	90,9	103,8	32,1	91,5




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2569,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,4 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat

shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 67,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,6 foizini tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari (foizda)



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (0375) 221-32-47